


QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti – hisobot davrida qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi sub’ektlar tomonidan ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmlarining qiymatini belgilab, ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.


2018 yilning yanvar-martda ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 565,4 mlrd.so‘mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 561,7 mlrd.so‘mni (102,2 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 2,8 mlrd.so‘mni (102,2 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 0,9 mlrd. so‘mni (122,8 foiz) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (2018 yil 1 aprel holatiga)




Hosil yig‘imi. 2018 yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 3,3 ming tonna sabzavotlar (100,7 foizga ko‘p), 0,3 ming tonna meva va rezavorlar (106,5 foizga ko‘p) etishtirildi.

2018 yil yanvar-martda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlari toifalar bo'yicha, tonna



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Chorvachilik. 2018 yilning 1 aprel holatiga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,8 foizga (jami 1484,4 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,5 foizga (650,1 ming bosh), qo'y va echkilar 100,4 foizga (2303,6 ming bosh), otlar 102,1 foizga (24090 bosh) va parrandalar 109,3 foizga (9949,5 ming boshga) o'sdi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan, dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 90,8 va 3,9 foizni, sut ishlab chiqarishda 96,4 va 3,5 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 36,0 va 13,1 foizni tashkil etdi.

**Chorva mollari va parrandalar bosh soni
(2018 yil 1 aprel holatiga)**

	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1484,4	102,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	65,2	101,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1414,1	102,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,2	107,7
ulardan sigirlar	650,1	101,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	25,1	114,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	623,7	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,3	80,8
Qo'y va echkilar	2303,6	100,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	91,0	73,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	2054,2	102,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	158,4	91,4
Otlar	24,1	102,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,0	135,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	21,7	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	88,0
Parrandalar	9949,5	109,3
<i>shu jumladan:</i>		

	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Fermer xo'jaliklari	2081,3	122,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4835,0	113,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3033,2	96,3




Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 95,3 foizni, fermer xo'jaliklarida esa 4,4 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 95,9 va 3,9 foizni, qo'y va echkilar 89,2 va 4,0 foizni, otlar 89,9 va 8,1 foizni, parrandalar 48,6 va 20,9 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-martda barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 58,2 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-martga nisbatan 102,2 foizga ko'p), 263,3 ming tonna sut (103,5 foizga ko'p), 242,7 mln. dona tuxum (100,1 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	58,2	102,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,3	183,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	52,9	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,1	101,2
Sut, ming tonna.	263,3	103,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	9,2	134,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	253,8	102,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,3	81,3
Tuxum, mln. dona	242,7	100,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	31,8	87,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	87,3	103,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	123,5	101,7

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)



Fermer xo'jaliklari. 2018 yilning yanvar-martda fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 41,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 7,5 foizni tashkil qildi.

2018 yilning 1 aprel holatiga fermer xo'jaliklarida 65,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 25,1 ming bosh sigir, 91,0 ming bosh qo'y va echkilar, 1951 bosh ot va 2081,3 ming bosh parrandalar mavjud.

2018 yil yanvar-mart holatiga fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari

	yanvar-mart				2017 yanvar-martga nisbatan foiz hisobida
	2017 yil		2018 yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Sabzavot	921	28,4	882	27,0	95,8
Meva va rezavorlar	50	15,5	54	15,7	108,0
Go'sht, tirik vaznda	1232	2,2	2256	3,9	183,1
Sut	6839	2,7	9204	3,5	134,6
Tuxum, mln.dona	36,3	15,0	31,8	13,1	87,7

